

Xorijiy Investitsiya Kiritishdagi Muamo Va Yechimlari

Azimov Olimjon Orifovich¹, Yusupov Firdavs²

Аннотация: Maqolada xorijiy investitsiyalar kiritish usullari va shakllari, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli yoritilgan, shuningdek investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va xorijiy investitsiyalar faol jalb qilishga qaratilgan taklif tavsiyalar va tushunchalari shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiyalari, asosiy kapital, investitsiya muhiti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, imtiyozlar, yalpi ichki mahsulot, chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar va davlatlarning iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqazo etmoqda. "Xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri kiritish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi"³Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkining va davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni, kichik korxonalar va firmalarni rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlar roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to'g'ri taqsimlash muommosidir. «O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni kiritish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish"^[2] vazifasi alohida belgilab berildi.

ASOSIY QISM

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni quyidagicha izohlab chiqamiz. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari-chet el investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari.

Investitsion sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirilmagan, undagi mulkdan, yerdan foydalanishga cheklovlarni bartaraf etilmagan, tijoriy nizolarni ko'rib chiqishda shaffoflikni ta'minlash masalalari ochiqligicha qolmoqda. Bu kabi muammolar qatorida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi, tegishli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham qayd etilgan.

¹ Buxoro davlat universiteti; "Iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchisi

² Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

³ (REFERENCES) 1. James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757



Shuningdek, amaldagi investitsiyalarni muhofaza qilish to'g'risidagi bitimlarni inventarizatsiya qilish muammosi ham haligacha ochiq qolmoqda. Bularning natijasida kiritilayotgan investitsiyalar o'zlashtirilmay qolmoqda. Investirlarga bizning bozorni tanlashi va bizga ishonib investitsiya kiritishishi uchun ma'lumotlar bazasida noaniqliklar ko'p. Qolayversa investitsion muhitni yaxshilash va oshirish uchun chet tajribasi yani investirlarni jalb qilish va qiziqtirish uchun malum bir tizimli chora tadbirlar olib boorilmayabti. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qiladi.

Xorijiy investitsiyalar kiritishda odatda uchraydigan muammolar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Qonun shartlari: Har bir davlatning xorijiy investitsiyalar uchun o'z qonunlari va shartlari mavjud bo'lishi mumkin. Bu shartlar va qonunlar investitsiyalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar yaratishi mumkin.
- Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik: Siyosiy va iqtisodiy holatlar, mamlakatda xorijiy investitsiyalarni kiritishda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Instabilitet yoki iqtisodiy boshqa o'zgarishlar investitsiyalar uchun risklarni oshirishi mumkin.
- Infrastruktura: Xorijiy investitsiyalar uchun kerak bo'lgan zaruriy infrastruktura, masalan, transport tarmoqlari, energiya taminoti, va kommunikatsiya, yo'qolishi yoki yetersiz bo'lishi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.
- Maxfiylik va huquqiy muammoatlar: Xorijiy investitsiyalar kiritishda maxfiylik va huquqiy muammoatlar muhim bir tushuncha bo'lib, shuningdek, intellektual mulkiyat huquqlari, moliyaviy maqbuliyatlar va shaxsiy ma'lumotlar himoyalari kabi muammolar.
- Kadr tayyorlashi: Qatnashish davlatning ishlab chiqarish, va xizmat korsatish sektorlari uchun kasb-hunar ta'limining yetarlicha bo'lishi va to'liqroq malakali kadrlarni jalb qilishda muammolar mavjud bo'lishi mumkin.
- Inflyatsiya va valyuta qadriyatlar: Inflyatsiya va valyuta qadriyatlarining o'sishiga oid bosqichlar xorijiy investitsiyalarni kiritishda moliyaviy risklarni oshirishi mumkin.

Yechimlar esa quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ✓ Xususiy imtiyozlar: Davlatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun xususiy imtiyozlar, masalan, vergi tevaraklari va chegirma dasturlari kabi moliyaviy muhitni yaxshilash o'rinlarini taklif qilishi mumkin.
- ✓ Huquqiy tamoyillar: Davlatlar xorijiy investitsiyalar uchun o'zaro muvofiqiyatni ta'minlash uchun huquqiy tamoyillarni o'tkazishi mumkin.
- ✓ Infrastruktura loyihalari: Infrastruktura loyihalari, masalan, transport va energetika tarmoqlarining rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda katta yordamchi bo'lishi mumkin.
- ✓ Investorlar bilan o'zaro ishonchli munaqashalar: Davlatlar investorlar bilan o'zaro ishonchli munaqashalar olib borishi, ularning moliyaviy va huquqiy himoyalari va qonunchilik muhitlarini yaxshilashga yordam berishi mumkin.
- ✓ Kadr tayyorlash va rivojlanishi: Sifatli kasb-hunar ta'limi va kadrlar uchun dastlabki imtiyozlar taklif qilinishi yoki xorijiy investitsiyalar kiritish uchun maqbul kadrlarni jalb qilish uchun dastlabki ishga tortish va rivojlanish dasturlarini o'rnatish yordamida kadr muammolari hal qilinishi mumkin.
- ✓ Moliyaviy va huquqiy muammoatlar uchun oldindan qarashlar: Moliyaviy va huquqiy muammoatlar uchun oldindan qarashlar qilinishi, masalan, xorijiy investorlarning mulkni himoya qilish uchun huquqiy qarorlar va maxfiylik huquqlari ta'minlash, moliyaviy rivojlanishni kengaytirishga yordam berishi mumkin.



Bu yechimlar va muammoatlar kiritishning muvaffaqiyatli bo'lishi va xorijiy investitsiyalarni o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu “iqtisodiyot drayveri”, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi .

XULOSA

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi. Jumladan: Xorijiy investitsiyalarni to'g'ri jalb etishning samarali tizimini yaratish uchun birinchidan, rivojlanish strategiyani ishlab chiqish, ikkinchidan, “yo'l xaritalari” yaratish, uchinchidan, uzoq yillarga mo'ljallangan konseptsiya ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Investitsiyalarni kiritish qarorini qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'plami investorning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab farqlanadi, lekin barcha turdagi va guruhdagi investorlarni jalb qilishda hududning investitsion muhitini tavsiflovchi va unga xizmat qiluvchi indikatorlar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xorijiy investitsiyalarni kiritish tizimini takomillashtirish quyidagi vazifalarni amaliy ijrosini ta'minlash o'rinli: xorijiy investitsiyalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg'unlashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish; innovatsion loyihalarni ishlab chiqayotgan va uni joriy etayotgan yuqori texnologik tarmoqlarga va korxonalariga qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar berish; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz. Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha turlicha yondoshuvlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish imkonini berishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov, O. (2023). WAYS AND METHODS TO ENHANCE THE ATTRACTION OF FOREIGN INVESTMENT IN UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 41(41).
2. Kadirovna-teacher, S. N. S. N. (2024). THE STATE AS THE MAIN SUBJECT OF INTRODUCTION OF GREEN ECONOMY IN THE REGIONS. STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD, 3(5), 40-46.
3. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).
4. Qayimova, Z. (2021). Prospects for the development of Islamic banking services market in commercial banks of Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 7(7).
5. Niyozova, I. (2021). Innovative Ways Of The Management System Of A Family Enterprise. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 8(8).
6. Igamova, S. (2022). Directions Of Activation Of Innovative Activities At Building Materials Enterprises. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 22(22).
7. Muhammedrizayeva, T. M., & Diorbek, I. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE MARKETING IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(4), 97-100.
8. Abdullayeva, H. (2023). BIZNESDA INNOVATSION MARKETINGNING USLUBLARIDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 43(43).

